

Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences

OKTOBER 15

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

KONFLIKT TUSHUNCHASI. KONFLIKTLAR HAQIDAGI HOZIRGI ZAMON KONSEPSIYALARI

Toshev Olmos Nuriddinovich

MTTDMQTMOI katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqlolada konflikt tushinchasi, uning mazmun mohiyati ilmiy va nazariy jihatdan tahlil qilib berilgan bo'lib, bu haqida sharq va g'arb uyg'onish davri konsepsiysi tahlil qilib berilgan. Shu bilan birga ijtimoiy qarama-qarshiliklar, jamiyat taraqqiyotidagi muammolar ham ko'rsatib o'tilgan

Kalit so'zlar: Global, kategoriya, konfliktologiya, tabiat, falsafa.

Аннотация: В статье научно и теоретически анализируется понятие конфликта, его сущность, а также анализируются концепции периода Восточного и Западного Возрождения. Вместе с тем показаны и социальные противоречия и проблемы в развитии общества.

Ключевые слова: Глобальность, категория, конфликтология, природа, философия.

Annotation: The article scientifically and theoretically analyzes the concept of conflict, its essence, and also analyzes the concepts of the Eastern and Western Renaissance periods. At the same time, social contradictions and problems in the development of society are also shown.

Key words: Globality, category, conflictology, nature, philosophy.

Bugungi murakkab xarakterga ega bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar kechayotgan bir sharoitda, jamiyatdagi ziddiyatlarni o'rganish va ularni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, global geosiyosiy va geoijtisodiy o'zgarishlar natijasida davlatlarning yopiq jamiyatdan ochiq jamiyatga o'tishi, undagi ziddiyatlarning yanada kuchayishi bu boradagi vazifalarni hal etish ahamiyatini yanada orttiradi. Ochiq jamiyat uchun ziddiyatlar ijtimoiy munosabatlar me'yori bo'lib, rivojlanish va o'zgarish jarayonining ajralmas atributi hisoblanadi.

Qadimgi davr bizga urushlarning batafsil tavsifini va ushbu turdag'i to'qnashuvlarning birinchi bahosini qoldirdi. Masalan, Geraklitda biz shuni ko'ramiz: "Urush hamma narsaning otasi va hamma narsaning shohidir. U ba'zilarni boy, ba'zilarini oddiy odamlar, ba'zilarini qul, boshqalarni ozod deb belgiladi". Urushni mohiyatan oqlagan Geraklitdan farqli o'laroq, Platon uni eng katta yovuzlik deb hisoblab, uni qoraladi. Qadimgi mutafakkirlar orasida davlat tuzilishiga oid qiziqarli konfliktologik fikrlarni ham uchratish mumkin. Arastu davlatni odamlarni yarashtirish vositasi deb hisoblagan. Davlatdan tashqarida bo'lgan shaxs, uning nuqtai nazaridan, tajovuzkor va xavfli. Demokritning ijtimoiy-axloqiy va huquqiy g'oyalari ham katta qiziqish uyg'otadi, u "Agar har kim bir-biriga yomonlik qilmaganida, qonunlar har kimga o'z didiga qarab yashashni taqilamasdi, chunki hasad adovatning boshlanishiga yordam beradi". Davlatdagi nizolarning sabablari nafaqat nomus va foydaning teng bo'limgan ulushlari, balki ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik motivlar, ya'ni "... beodoblik, ustunlik, nafrat, ortiqcha yuksalish; boshqa tomondan, intrigalar, kamsituvchi munosabat, mayda tahqirlar, xarakterlarning o'xshamasligi". Shu bilan birga, barcha nizolarning asosiy sababi va manbai, mutafakkir ishonganidek, davlatdaadolatsiz tamoyilning adolatdan ustunligidir.

Shunday qilib, aynan qadimgi faylasuflar tomonidan borliqning umuminsoniy xususiyatlari sifatida taqdim etilgan qarama-qarshilik va kurash kategoriyalari nuqtai nazaridan konfliktning

Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences

OKTOBER 15

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

mohiyatini, uning umuminsoniy xarakterini chuqur anglash mumkin.

Qarama-qarshilik dialektikaning markaziy kategoriyasi - tabiat, jamiyat va inson tafakkurining umuminsoniy kategoriyalari va rivojlanish qonuniyatları haqidagi zamonaviy falsafiy ta'limotdir. Ushbu nazariyaga ko'ra, qarama-qarshilik bir butun elementlarning xilmashilligi bilan bog'liq bo'lib, butunning bu elementlari orasidagi har qanday kelishmovchilik, butun tuzilishdagi kelishmovchiliklar paydo bo'lganda yuzaga keladigan o'ziga xos turdag'i munosabatdir. Va har qanday real ob'ektida mutlaqo barqaror muvofiqlik mavjud emasligi sababli, qarama-qarshilik universal xususiyatga ega. Qarama-qarshilik kategoriyasi zamonaviy dialektika ob'ektlarning o'z mohiyatida ko'radigan barcha harakat, o'zgarish va rivojlanish manbasini o'rganish bilan bog'liq. Qarama-qarshilikning ko'p qirraliligi bilan ziddiyatning umuminsoniy tabiatini ham ziddiyatning holatlaridan yoki xossalardan biri sifatida xizmat qiladi.

Antik davr Sharq faylasuflari orasida Konfutsiyning konfliktologik g'oyalari alohida o'rinnutadi. Uning ko'p sonli axloqiy ko'rsatmalaridan biri quyidagicha: «O'zingga xohlamaganingni boshqalarga ham qilma, shunda davlatda va oilada senga nisbatan dushmanlik his qilinmaydi». Mutafakkir ixtiloflar manbasini odamlarning "zodagonlar" (bilimli, savodli va o'qimishli odamlar) va oddiy odamlar ("kichik odamlar")ga bo'linishida ko'rgan. Oddiy odamlarning nodonligi va yomon xulq-atvoriadolat va insoniy munosabatlar me'yorlarining buzilishiga olib keladi. Olijanob erkaklar uchun munosabatlar asosi tartib, kichik odamlar uchun esa foyda.

Antik davr Sharq faylasuflari urush va kurashni emas, balki tinchlik va totuvlikni oliy qadriyat deb bilishgan. Qadimgi xitoy faylasufi Lao Tszi (miloddan avvalgi 579-499) «Urushlarda motam tutganlar g'alaba qozonadi, asosiysi osoyishtalik», deb o'rgatgan. Uning fikricha, dunyoning asosiy kelib chiqishi Yan (yorug'lilik) va In (qorong'u) o'zaro kurashmaydi, ular bir-birini to'ldiradigan darajada Birlikning uyg'unligini tashkil qiladi.

O'rta asrlar Falsafasi Injilning ahdlariga tayanib, odamlar o'rtasidagi tinchlik, totuvlik va birodarlikning afzalliklarini isbotlashga harakat qildi. Avreliy Avgustin va Foma Akvinskij qurolli to'qnashuvlarga qarshi g'oyalarni ishlab chiqdilar, ammo bu tarixiy voqealarning tabiiy borishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi.

IV asrning boshlaridayoq urushlarning "Masihning ta'limoti" bilan mos kelmasligi tamoyili shubha ostiga olindi. Xudo yaratgan dunyoda yovuzlikning son-sanoqsiz ko'rinishlarini qandaydir tarzda tushuntirish va oqlashga intilib, diniy falsafa "Xudoni oqlash" yoki "tereditseya" deb nomlangan maxsus ta'limotni ishlab chiqdi. Bu ta'limotning ma'nosi yaxshi va qudratli Xudo ostida qanday qilib dunyoda turli xil to'qnashuvlar: global falokatlar, urushlar, makkor qotilliklar, baxtsizliklar va odamlarning azob-uqubatlari borligini aniqlash edi. Bu savollarning qo'yilishi xudoni inkor etish, ateizm tug'ilishining manbalaridan biri edi. Bunga javob berishga urinishlar savollar nasroniylikning tug'ilishi davrida boshlangan va hozirgacha to'xtamagan. Birinchi nasroniy ilohiyotshunoslaridan biri Tertullianning (160-220) javobi ma'lum bo'lib, u Xudoning tabiatini, uning rejalarini inson aqliga mos kelmaydi va shuning uchun biz unga ko'r-ko'rona ishonishdan boshqa ilojimiz yo'q, deb hisoblagan.

Ko'rinib turibdiki, nasroniygacha bo'lgan va nasroniylik davri faylasuflari tomonidan dunyoda turli xil to'qnashuvlar mavjudligining asl sabablarini tushuntirishda umumiyl jihatlar ko'p. Bular ham, boshqalar ham kurash, to'qnashuvlar borliqning uzviy, barham topib bo'lmaydigan mulki ekanligini tan oladilar. Antik va nasroniy faylasuflarining farqi shundan iboratki, birlari bu umuminsoniy hodisalarda borliq, tabiatga xos xususiyatlarni ko'radi, boshqalari esa ularda Xudoning rejasi, irodasini ko'radi.

Uyg'onish davri mutafakkirlari — Nikolay Kuzaskiy, Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Nikkolo Makiavelli insonning kuchiga, uning ongi va uyg'unligiga, ijtimoiy ziddiyatlarni engish qobiliyatiga ishongan. T. Mor, F. Rable, F. Bekon, Erazm Rotterdamlik ijtimoiy nizolar

Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences

OKTOBER 15

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

va qurolli to‘qnashuvlarni keskin qoralaganlar. Ularning oxirgisi “urush bilmaganga shirin” ekanligini va boshlangan mojaroning o‘ziga xos rivojlanish mantig‘i borligini, zanjirli reaksiyaga o‘xshab kuchayib borayotganini va mamlakat aholisining yangi qatlamlarini qamrab olishini ta‘kidlagan. F.Bekon mamlakat ichidagi ziddiyatlarning sabablarini tahlil qilib, ular orasida birinchi navbatda moddiy omillarni, xususan, xalqning moliyaviy ahvolning yomonligini ko‘rsatdi. Shuningdek, u nizolar manbasi sifatida hokimiyatning xalq fikri bilan inobatga olinmayotgan siyosiy xatolarni, shuningdek, hasad, hukumatni obro‘sizlantiradigan yolg‘on mish-mishlar kabi psixologik omillarni ko‘rsatdi .

Zamonaviy davr Yevropa davlatlarining nafaqat kuchli iqtisodiy, balki madaniy va ilmiy yuksalish davri edi. Bularning barchasi tevarak-atrofdagi olam hodisalarini bilishga, shu jumladan konfliktlarni o‘rganishga tizimli yondashish uchun zarur shart-sharoit yaratdi .

O‘sha davr uchun konflikt muammosiga eng tipik qarashlar T.Gobbs, J.-J.Russo, A.Smit va boshqalarning asarlarida mavjud edi.Gobbs va Lokk individual insonning o‘zini o‘zi qadrlash pozitsiyasidan kelib chiqadi. Inson jamiyatda yashashiga qaramay, birinchi navbatda o‘z ehtiyojlarini qondirish bilan band bo‘lib, ularni qondirgandan keyingina davlat ishlariga yuzlanadi. Gobbs ta‘kidlaganidek “Tabiat odamlarni jismoniy va aqliy qobiliyatlarini jihatidan teng yaratgan...”. Biroq, bunday tenglik umuman yaxshi emas, chunki o‘z maqsadga erishishda odamni boshqa odamlarning o‘xshash intilishlariga duchor bo‘lishga majbur qiladi. Shuning uchun Gobbs jamiyatning tabiiy holatini “hammaning hammaga qarshi urushi” deb ataydi.

Konfliktlarning tabiatiga nisbatan optimistik nuqtai nazarni frantsuz faylasufi Jan-Jak Russo (1712-1778) egallagan, u Gobbsdan farqli o‘laroq, inson tabiatan mehribon, tinch, baxt uchun yaratilgan deb hisoblagan.Uning fikricha, o‘sha davr uchun zamonaviy jamiyatdagi ziddiyatlarning manbai jamiyatni tashkil etishdagi kamchiliklar, odamlarning adashishi va noto‘g‘ri qarashlari, eng avvalo, ularning xususiy mulkka bo‘lgan moyilligi edi. Odamlar uchun tabiiy tinchlik va totuvlik munosabatlarini tiklashning eng muhim omili ular o‘zaro kelishuv asosida, birinchi navbatda, zo‘ravonliksiz, inson mohiyatiga eng mos keladigan tarbiyaviy vositalarga asoslangan demokratik davlat bo‘lishi kerak. Russo konfliktlarning asosiy sababi sifatida odamlarning ijtimoiy va birinchi navbatda mulkiy tengsizligi deb hisoblaydi.

XIX-asrning birinchi yarmi. Konfliktologik fikrning rivojlanishining bu bosqichida klassik nemis falsafasi namoyandalari Immanuil Kant, Georg Gegel, Lyudvig Feyerbax va boshqalarning g‘oyalari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular, xususan, urush va tinchlik muammosini hal qildilar. Bu borada I.Kantning “Abadiy tinchlik to‘g‘risida”gi qarashlari qiziq bo‘lib, u “qo‘schnichilikda yashovchi odamlar o‘rtasidagi tinchlik holati tabiiy holat emas... oxirgiisi, aksincha, urush holati, ya’ni uzluksiz dushmanlik harakatlari bo‘lmasa, ularning doimiy tahdididir.Binobarin, tinchlik holati tashkil etilishi kerak “. G.Gegel xalqlarning ma‘naviy poklanish vositasi bo‘lgan urushlarning jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy rolini qayd etgan.

Umuman olganda, XIX-asr nazariyalarida ijtimoiy taraqqiyot kurash va to‘qnashuvlar ijtimoiy hayotning muqarrar belgilari bo‘ladigan tarzda ko‘rsatila boshlaydi.

Inson uchun e’tiborda va ma’lum bir guruhgaga tegishli bo‘lish keyingi asosiy ehtiyojlardir. Yolg‘iz odam uchun do‘stlar, yaqinlar, oila a‘zolari munosabatimuhim ehtiyojga aylanadi. Odam och qolganda oziq-ovqat va himoyadan boshqa hech narsani o‘ylamasdi; lekin u bu ehtiyoj bo‘lmaganida ko‘proq odamlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga intiladi va ular orasidan munosib o‘rin izlaydi.